



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Xudoyberdiyev Shodiyor Mamatilayevich

*SamDU Kattaqo'rg'on filiali "Biznesni
boshqarish va axborot texnologiyalari" fakulteti*

UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARINI KASBGA YO'NALTIRIB O'QITISHDA MAKTAB, OILA VA MAHALLANING ROLI.

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktablari o'quvchilarini aniq bir kasb egasi bo'lishida umumta'lim maktablari davridan kasbga o'qitishda maktab, oila va mahallani o'rni nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablar, kasb-hunar maktablari, "Ishga marhamat" monomarkazlari, kasbiy ma'lumotlar berish, kasbiy maslahatlar berish, kasbiy tashxis, kasbga yo'naltirish, kasbiy moslashuv, kasbiy bilimlar.

Maktab, oila va mahalla bilan hamkorlikda o'quvchi-yoshlarni Vatanimizning munosib fuqarosi bo'lib yetishishida, o'zini mustaqil hayotga tayyorlashda, o'z ishlari va harakati bilan oilasiga hamda jamiyatga foyda keltiradigan, xalqimizning milliy an'analarini qadrlaydigan, har tomonlama yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish bizning eng dolzarb vazifalarimizdan biridir.

Muxtaram yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev "Yoshlar huquqi deganda, biz, birinchi navbatda, ularning tinch va sog'lom yashash hamda ta'lim olishga bo'lgan to'laqonli huquqini tushunamiz. Shu bois, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning barkamol bo'lib voyaga yetishi, sifatli va mukammal ta'lim olishini ta'minlash biz uchun hamisha ustuvor vazifa hisoblanadi" deya ta'kidlagan. Bundan tashqari "Yangi O'zbekiston" nashriga bergan intervyusida hozirda oliygohlar soni 141 taga yetkazilgan, 26 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasining filiallari ochilgan. Holbuki,



2016-yilda respublikadagi oliygohlarning soni 77 ta edi. Qisqa muddatda bu borada qariyb ikki barobar o'sishga erishildi deya ta'kidlagan.

“Keyingi besh yilda oliy ta'limga qabul kvotasi 3 barobar oshirilib, joriy yilda 182 ming nafar yoshlar uchun talaba bo'lish imkoniyati yaratildi. Bu umumiy qamrov 28 foizga yetdi, deganidir. O'zingiz qiyoslab ko'ring, 4 yil avval bu raqam atigi 9 foizni tashkil etardi. Bu borada davlat grantlari 21 mingtadan 47 mingtaga ko'paytirilgani, o'tgan yilgi tajribamizni yangi bosqichga ko'tarib, ehtiyojmand oilalarga mansub 2 ming nafar qizlarga bu yil oliygohlarga kirish uchun alohida grantlar ajratilgani yoshlarimiz kelajagini ta'minlashga qaratilgan amaliy e'tiborimiz namunasidir”, - deydi Shavkat Mirziyoev.

2022-yil 15-iyun kuni Prezidentning “2022-2023-o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida”gi Farmoyishi qabul qilindi. Unga ko'ra, 2022-2023-o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari:

a) bakalavrlar tayyorlash bo'yicha: kunduzgi ta'lim shakliga 77477 nafar, sirtqi ta'lim shakliga 26095 nafar, kechki ta'lim shakliga 3725 nafar, masofaviy ta'lim shakliga 3410 nafar;

b) magistrLAR tayyorlash bo'yicha 10688 nafar etib tasdiqlandi.

Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalarining kuzatuv kengashlariga hamda qabul parametrlarini Vasiylik kengashi qarori bilan tasdiqlash vakolati berilgan oliy ta'lim tashkilotlariga tegishli qabul parametrlarini 2022-yil 20-iyunga qadar tasdiqlash tavsiya etildi.

Ta'kidlanishicha, 2030 yilga qadar maktab, litsey va professional ta'lim muassasalari bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 50 foizga yetkazish reja qilingan.

Ammo har bir o'quvchi aniq bir kasb egasi bo'lishi uchun maktab davridan boshlab kasbga o'qitish tizimi joriy etilishi belgilandi. Buning uchun 7-sinf dan boshlab o'quvchilarning kasblar kesimida qiziqishi aniqlanadi. 8-9-sinf o'quvchilari dasturchi, dizayner, tarjimon kabi istiqbolli kasblar uchun poydevor bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni egallaydi. 10-sinf dan robototexnika, dasturlash kabi talab yuqori kasblarga o'rgatish yo'lga qo'yildi.

Ta'lim to'g'risidagi qonunning 9-moddasida tayanch o'rta ta'lim doirasida (VII sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshirilishi, o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlashi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida” 2019-yil 12-iyuldagi 577-son qarori ilovasidagi “Umumiy o'rta va o'rta maxsus davlat ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish to'g'risida nizom”da psixologlarga kasb-hunarga yo'naltirish yo'nalishida:



-o'quvchilarga turli kasblar, ixtisosliklar, mansab lavozimlari, tanlangan kasbni, ixtisoslikni egallash mumkin bo'lgan ta'lim muassasalari hamda kasbning insonga, uning jismoniy, psixologik va shaxsiy sifatlariga, salomatligiga qo'yadigan talablari haqida ma'lumotlar berish;

-o'quvchilarning bilish (o'quv predmetlariga, fanga) va kasbiy (kasblarga, mutaxassisliklarga) qiziqishlarini, kasb tanlash motivlari va kasbiy rejalarini aniqlash hamda baholash;

-o'quvchilarga ularning individual xususiyatlari va mehnat bozori talablarini, ta'lim olish hamda kelgusida ishga joylashish imkoniyatlarini hisobga olgan holda kasb va ta'lim muassasasini tanlashga ko'maklashish;

-o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini, kasblarga qiziqish, mehnatsevarlik, ishchanlik va mas'uliyatni shakllantirish hamda rivojlantirish belgilab qo'yilgan.

Kasb-hunarga yo'llash bo'yicha olib boriladigan ishlarning barcha shakl va metodlari o'quvchilarning maqsadli ravishda kasb tanlashlariga xizmat qilishi lozimdir.

Maktabda kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini yo'lga qo'yishda an'anaviy amaliy mashg'ulot, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik o'yin, konferensiya, mustaqil fikrlar, mahalla, ishlab chiqarish korxonalarining jamoalari bilan birgalikda o'tkaziladigan tadbirlar kabi yangi pedagogik texnologiya elementlaridan unumli foydalanish tavsiya etildi.

Kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Kasbiy ma'lumotlar berish: o'quvchilarga zamonaviy ishlab chiqarishning turlari, mehnat bozori haqida tushunchalar berish hamda kasblarning odamlarga qo'yadigan talablari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish;

kasb-hunar ta'limi muassasalari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashning asoslarini yaratish.

Kasbiy maslahatlar berish: o'quvchi-yoshlarni qiziqishlari, moyilligi, tug'ma layoqati, qobiliyati, ko'nikmalari, oilaviy muhit, hududiy shart-sharoitlar, o'quvchi va ota-onalarning istak va xohishlari, kasbga qo'yiladigan talablardan kelib chiqib, malakali kasbiy maslahatlar berishni tashkil etish asoslarini ishlab chiqish.

Kasbiy tashxis: shaxsning individual psixologik va fiziologik xususiyatlari, yoshi, bilim darajasi, ko'nikma va malakalarini hisobga olgan holda yakuniy tashxis qo'yish (tashxis materiallari maxfiy hisoblanib, u faqat o'quvchi va uning ota-onasi bilan muhokama etiladi), o'quvchining kasbiy moyilligini aniqlash, shaxsning yo'nalganlik darajasini baholash.

Kasbga yo'naltirish: psixologik, psixofiziologik va tibbiy tashxis natijalari asosida shaxsning psixologik, psixofiziologik va fiziologik xususiyatlariga mos keladigan zamonaviy ta'lim kasbiy tayyorlov yo'nalishlari to'g'risida unga tavsiyalar berish;

Jamiyat ehtiyoji va mehnat bozori talablari asosida ularning o'z qiziqishlari, qobiliyatlari va sog'liqlariga mos bo'lgan kasb-hunarlarini tanlashlariga ko'maklashish; o'rnatilgan me'yoriy talablar asosida shaxsni o'zi tanlagan aniq bir kasbga loyqlik darajasini aniqlash.



Kasbiy moslashuv: shaxsning mutaxassis bo‘lib yetishishi, undagi tegishli ijtimoiy va kasbiy sifatlarning shakllanishi, faol ijodiy mehnat qilish, berilgan ko‘rsatma va talablarning bajarilishi hamda yuqori kasbiy malakaga erishishiga imkon yaratuvchi tadbirlar tizimini yaratish, turdosh kasblar ichidan shaxsga maqbul bo‘lgan kasbni tanlashida ko‘maklashish.

Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining ishtirokchilari o‘quvchilar, ota-onalar, maktab, kasbga yo‘naltiruvchi psixolog, o‘qituvchilar, sinf rahbari, maktab shifokori, kutubxona mudiri, jamoat tashkilotlari, professional ta‘lim muassasalari, korxonalar, mehnat organlari, hududiy boshqaruv organlari (hokimlik), mahalliy o‘z-o‘zini boshqaruv organlari, ommaviy axborot vositalari.

Ko‘pgina ota-onalar, pedagoglar o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda ota-ona, o‘qituvchi, mahalla faollarining mas‘uliyatini e‘tirof etishadi-yu, kasb tanlashda - eng muhim mas‘ul shaxs, ya‘ni o‘quvchi haqida deyarli fikr bildirmaydilar. Vaholanki, kasb-hunar tanlash avvalo harbir yoshning o‘zi hal qilishi kerak bo‘lgan masaladir. Buning uchun katta yoshdagi ustozlar, mahalla-kuy, oila a‘zolari o‘smir va o‘spirin yoshdagilarga kasb tanlovida adashmaslikka zamin yaratishlari lozim.

Kasbiy bilimlar - o‘quvchilarni kasbning mohiyati, uning shaxs oldiga qo‘yadigan talablari bilan tanishtirishdan iborat ta‘sirchan axborotlar majmuasidan iborat bo‘lmog‘i kerak. Mazkur axborotlarni yoshlar ongiga yetkazishda jamiyatning barcha bo‘g‘inlari ishtiroki va hamkorligini tashkil etish bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir.

Hozirda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida “Ustoz-shogird” an‘anasini joriy etish, o‘g‘il bolalar uchun “Yigit kishiga qirq xunar oz” hamda qiz bolalar uchun “Tanlagan kasbim - kelajakdagi baxtim” shiori ostida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish yuzasidan ota-onalarning faoliyat ko‘rsatib kelayotgan kasblaringizni kelajak avlodga o‘rgatish, ularni kelajakda o‘z kasbini yetuk ustasi bo‘lib yetishishlarida ko‘makchi bo‘lish bizning asosiy vazifamiz bo‘lib xizmat qiladi.

Yurtimiz kelajagi, bugun maktabda ta‘lim olayotgan bugungi yoshlarning qo‘lidadir.

Ta‘lim tizimidagi islohotlar ishlashimiz, o‘qitishimiz, o‘qishimiz, kasb iqtidorimizni takomillashtirib borish uchun erkin mehnat qilishimizga yetarli imkoniyat yaratib bermoqda.

Shu munosabat bilan bu o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4804-sonli qarori chiqarildi.

Mazkur qarorda Vazirlik 2021-yil 1-yanvardan boshlab “Ishga marhamat” monomarkazlari hamda kasb-hunarga o‘qitish markazlari bitiruvchilarining kasbiy malakasini WorldSkills standartlari asosida baholash, shuningdek, baholashdan muvaffaqiyatli o‘tgan bitiruvchilarga mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda tan olinadigan Skills pasporti berilishini yo‘lga qo‘ysin va kasbiy malakasi tasdiqlangan bitiruvchilarning Yagona ryestrini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha topshiriqlari berildi.



“Ishga marhamat” monomarkazlari hamda kasb-hunarga o‘qitish markazlari tomonidan bitiruvchilarga berilgan o‘qishni tamomlaganlikni tasdiqlovchi hujjat hamda Skills pasporti o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi diplomi darajasiga tenglashtirilib, egallagan bilimlarni mehnat faoliyatida amalga oshirish huquqini beradi, biroq, ta’limning keyingi turini davom ettirish uchun asos hisoblanmasligi belgilandi.

Shu bois, kasb-hunarga yo‘naltirilgan loyihalar o‘quvchilarga shaxsiy xususiyatlarini, qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash imkonini beradi hamda mazkur ma’lumotlarga tayanib, ularning shaxsiy imkoniyatlariga mos keluvchi kasbni tanlash imkonini beradi.

Asosiy maqsadimiz esa insonlarga sevgan kasblariga erishish yo‘lini ko‘rsatib berishda yordam berib, O‘zbekistonning rivojlanishiga ko‘maklashish vazifasini amalga oshirishdan iboratdir. Ishonamanki, qanchalik ko‘proq insonlar o‘z ishidan zavqlanib ishlasa, ular buni yanada samarali amalga oshirishadi, O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘sishi yanada tezlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni, 2020-yil 23-sentabr O‘RQ-637.*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi F-60-son farmoyishi.*
3. *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2019-yil 12-iyuldagi 577-son qarori.*